




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-oktyabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-oktyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4317,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 642,2 mln. AQSh dollariga yoki 17,5 % ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 1626,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 114,5 %) va import hajmi 2691,0 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 119,4 %) yetdi. Hisobot davrida 1064,6 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktyabr, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-oktyabrga nisbatan, %da)





**TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ULUSHI YUQORI BO‘LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-oktyabr, mln. AQSh dollari)**


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	938,0	256,7	681,3	21,7
Turkiya	816,6	657,5	159,1	18,9
Qozog‘iston	754,3	132,8	621,5	17,5
Xitoy	578,2	183,7	394,5	13,4
Braziliya	157,1	0,0	157,1	3,6
Koreya Respublikasi	116,3	13,2	103,0	2,7
Ukraina	108,0	39,2	68,8	2,5
Belarus	93,8	14,8	79,0	2,2
Germaniya	65,2	9,0	56,2	1,5
Tojikiston	65,0	57,9	7,1	1,5
Afg‘oniston	57,5	57,5	0,0	1,3
Qirg‘iz Respublikasi	52,4	37,2	15,2	1,2
Italiya	49,3	8,9	40,4	1,1
Niderlandiya	40,7	24,8	15,9	0,9
Litva	35,3	0,6	34,7	0,8
Irlandiya	34,5	0,0	34,5	0,8
Qatar	28,9	28,8	0,0	0,7
Eron Islom Respublikasi	27,0	2,7	24,3	0,6
Singapur	26,4	25,8	0,6	0,6
Ozarbayjon	22,3	4,2	18,1	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-oktyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,5 %ni hamda o‘shish sur‘ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 121,5 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yilning yanvar-oktyabr oylarida 52,5 %ni (2020- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,1 %ni tashkil qilgan), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,1 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-oktyabr, % hisobida)






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-oktyabr)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-oktyabr oylari yakuni bilan 1626,4 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 114,5 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,2 %), turli xil tayyor buyumlar (7,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,8 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,0 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,6 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-oktyabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1626,4	553,1	1073,3	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	165,9	91,5	74,4	10,2	16,6	6,9
Ichimliklar va tamaki	2,3	2,2	0,1	0,1	0,4	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	77,9	50,1	27,8	4,8	9,1	2,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,4	0,2	0,2	0,01	0,01	0,01
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,9	0,1	0,8	0,1	0,01	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	64,8	45,3	19,5	4,0	8,2	1,8
Sanoat tovarlari	1157,1	226,8	930,3	71,1	41,0	86,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	26,1	16,2	9,9	1,6	2,9	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	123,5	119,3	4,2	7,6	21,6	0,4
Xizmatlar	7,5	1,4	6,1	0,5	0,2	0,6







MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-oktyabr)

2021-yilning yanvar-oktyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	114,5	105,3	119,9
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	80,6	61,0	133,2
Ichimliklar va tamaki	135,8	152,1	41,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	115,7	158,6	77,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	198,5 m.	134,3 m.	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	37,4	33,2	37,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	163,5	148,2	215,3
Sanoat tovarlari	119,0	112,0	120,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	97,7	111,3	81,4
Turli xil tayyor buyumlar	128,6	127,9	154,2
Xizmatlar	85,9	128,2	80,0



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-oktyabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1385,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,2%ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 114,7 mln. dollar qiymatga ega 195,6 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 29,3 %ga kamaygan, naturada – 28,9 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 64,8 mln. AQSh dollariga teng 125,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 3,1 %ga o'sgan), shuningdek, 30,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 39,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 56,1 %ga teng).

2021- yil yanvar-oktyabr, mln. AQSh

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryon-g'oqlar	Sabzavotlar
39,3 ming tonna	20,2 ming tonna	8,4 ming tonna	2,5 ming tonna	125,2 ming tonna
30,7 mln. AQSH dollari	14,1 mln. AQSH dollari	2,2 mln. AQSH dollari	2,9 mln. AQSH dollari	64,8 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-oktyabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 95,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,9 %ini tashkil qiladi.




**TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI
(2021- yil yanvar-oktyabr)**

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari mobaynida import hajmi 2691,0 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 119,4 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,8 %), sanoat tovarlari (18,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (21,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (8,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqa turdagi tovarlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-oktyabr)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2691,0	1496,5	1194,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	391,2	159,7	231,5	14,5	10,7	19,4
Ichimliklar va tamaki	7,3	7,0	0,3	0,3	0,5	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	580,2	559,9	20,3	21,6	37,4	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	73,2	71,8	1,4	2,7	4,8	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar	63,1	57,7	5,4	2,3	3,9	0,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	230,4	72,6	157,8	8,6	4,9	13,2
Sanoat tovarlari	501,4	359,0	142,4	18,6	24,0	11,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	694,7	178,1	516,6	25,8	11,9	43,3
Turli xil tayyor buyumlar	110,7	21,0	89,7	4,1	1,4	7,5
Boshqa tovarlar	11,6	5,4	6,2	0,5	0,3	0,6
Xizmatlar	27,2	4,3	22,9	1,0	0,3	1,9

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (37,4 %), sanoat tovarlari (24,0 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,3 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-oktyabr, % hisobida)

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	119,4	128,8	109,4
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	131,3	67,6	3,7 m.
Ichimliklar va tamaki	181,8	193,3	82,8
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	179,4	193,8	58,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	87,2	87,0	95,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	99,8	120,4	34,7
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	137,2	157,2	129,7
Sanoat tovarlari	119,0	130,7	97,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	97,3	126,3	90,1
Turli xil tayyor buyumlar	96,2	121,1	91,8
Boshqa tovarlar	46,1	42,2	50,0
Xizmatlar	71,0	38,7	84,4





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-oktyabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Belarus hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2195,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 81,5 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (71) 202-86-59**